




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo‘rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an‘analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O‘zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na‘tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O‘zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO‘BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O‘RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo‘jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O‘zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o‘rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G‘allaorol tumani nurobod qishlog‘i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO‘RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E‘zoza MIZAMOVA “Ravshan”dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO‘RAQULOVA, O‘zbek xalq ertaklarida “Oq” va “Qora” ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo‘llangan ba‘zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o‘zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o‘ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi “sar sila” marosimi: an‘anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

“RAVSHAN”DOSTONIDA XALQONA TIL: MAQOLLAR, IBORALAR, DOIMIY EPITETLAR

FOLK LANGUAGE IN THE EPISTLE "RAVSHAN": PROVERBS, IMPLIED, PERMANENT EPITHES

E'zoza MIZAMOVA,

Andijon davlat universiteti magistranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YAGR8009

Annotation. *This article is devoted to the analysis of the artistic and functional significance of folk language elements – proverbs, expressions and permanent epithets – in the epic poem “Ravshan”. During the study, the role of these units in the composition of the epic, their role in forming the system of images, and their ability to give the epic text the national spirit and naturalness inherent in oral creativity are highlighted. The strengthening of moral criteria through proverbs, the enhancement of the expressiveness of the image with the help of expressions, and the typicalization of epic images with permanent epithets are shown on the basis of the evidence.*

Key words: *folk language, proverbs, expressions, permanent epithets, epic poetics, folklore, linguopoetics.*

KIRISH

Folklor asarlarida xalqning ma'naviy-madaniy tajribasi, ijtimoiy ideallari, estetik qarashlari va tarixiy xotirasi mujassam bo'ladi. Xalq ma'naviy qiyofasi va tafakkurini rivojlantirishda til va adabiyotning o'rni beqiyosdir. Zero, milliy til va adabiyot xalqning mentalital qiyofasini vujudga keltiradi. [Nurmamatova 2021;2] “Ravshan” dostonining badiiy tuzilishi ham epik an'analarga tayangan holda shakllanib, unda xalqona nutq unsurlarining ko'pligi asarni milliy ruh bilan sug'oradi. Xalq tiliga xos maqollar, iboralar va doimiy epitetlarning faol qo'llanishi doston poetikasini chuqurroq anglash, uning badiiy ta'sirchanligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash imkonini beradi.

Dostonning epik tabiati, avvalo, obrazlar nutqida xalqona tilning ustuvor qo'llanishi orqali namoyon bo'ladi. Maqollar xalq donishmandligi, axloqiy me'yorlar va hayotiy tajribaning ixcham ifodasi sifatida syujet rivoji va obrazlar xarakterining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ular voqealar mantiqini mustahkamlash bilan birga, xalqning axloqiy qadriyatlarini doston matniga singdiradi. Shuningdek, iboralarning ko'plab uchrashi asar nutqiga emotsional-ekspressiv ohang bag'ishlaydi, voqealarning dramatik yoki lirik tusini kuchaytiradi, epik tasvirning jonliligini ta'minlaydi. Xalq iboralari dostonning og'zaki ijodga xos tabiiyligini saqlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

“Ravshan” dostonining badiiy tuzilishini tahlil etishda xalqona til unsurlari – maqollar, iboralar va doimiy epitetlarning funksional ahamiyatini o'rganish muhim ilmiy vazifalardan biri sanaladi. Chunki ushbu birliklar nafaqat matnning til qatlamini boyitadi, balki asarning poetik tabiati va epik energiyasini shakllantiradi. Dostonning og'zaki ijod mahsuli sifatida avloddan avlodga og'zaki tarzda o'tganini hisobga olsak, unda xalq nutqi va xalq tafakkuri qatlamining saqlanishi tabiiy jarayon sifatida qaraladi. Biroq bu unsurlar har doim ham yuzaki bezak bo'lib qolmay, aksincha kompozitsiya, obrazlar tizimi va syujet rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan badiiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili - ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang – barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. [Darveshov 2025;125b]

Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlari xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg’unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi [Mirzayev, Musaqulov, Sarimsoqov 2013; 5]. “Ravshan” dostonida uchraydigan maqollar, avvalo, hayotiy qarashlari va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Epik matnda maqollar ko‘proq konfliktlar, qaror qabul qilish jarayonlari yoki qahramonlarning ruhiy holatini yoritish zarur bo‘lgan sahnalarda paydo bo‘ladi. Maqollar yordamida voqealarga baho beriladi, qahramonlarning fe‘l-atvori sharhlanadi va o‘quvchiga ma’nodorlik yo‘nalishi beriladi. Masalan, “Ravshan” dostonida qo‘llangan “Odam qarisa ayniydi” [Ravshan dostoni 2011; 169] maqoli orqali insonning Yoshi ulg‘aygani sari uning fe‘l-atvori, dunyoqarashi hamda ruhiy holatida ma’lum o‘zgarishlar yuz berishi badiiy jihatdan ifodalangan. Dostonda mazkur maqolning qo‘llanishi, ayniqsa, avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar va hayotiy tajribaning ahamiyatini yoritishda muhim poetik vosita vazifasini bajargan. Bu esa dostonning ideya yo‘nalishida xalq donishmandligi asosiy mezon sifatida turishini ko‘rsatadi.

Maqollarning yana bir muhim funksiyasi – tinglovchi yoki o‘quvchini epik voqealarga yaqinlashtirishidir. Ular dostonni o‘quvchi ongiga tanish nutqiy shakllar orqali olib kiradi, shu bilan birga epik matnga milliy ruh bag‘ishlaydi. Masalan, asarda “Yolg‘iz bola yovdan yomon”, Zar qadrini zargar bilar har yerda bilar”, “Qizi borning nozi bor” kabi maqollar uchraydi. Bu maqollar orqali xalqimizda oila, farzand, inson qadri va mehr – muhabbat haqidagi dono qarashlarini ask ettiradi. Ba’zi maqollar didaktik mazmun kasb etib, qahramonlarning odob-axloq normalariga mos ravishda baholanishiga yordam beradi. Shu ma’noda maqollar matnning aksilqahramonlariga ham baho berishda muhim vositaga aylanadi: yovuz, makkor yoki bevafoqlik timsollariga beriladigan xalqona baho maqollar orqali puxta mustahkamlanadi. Shunday qilib, maqollar dostonning semantik qatlamini teranlashtiradi, obrazlar xarakteristikasini aniq, jonli va qisqa shaklda ifodalaydi.

Doston tilidagi iboralar asarning emotsional-ekspressiv kuchini oshiruvchi eng asosiy vositalardan biridir. “Ravshan” dostonida uchraydigan ko‘plab iboralar xalq tilining tabiiy obrazlilik xususiyatini aks ettiradi. Ular orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari, voqealarning keskinligi, jang sahnalarining dinamikasi tabiiy va jonli ko‘rinishda yoritiladi. Iboralar epik ritmning shakllanishiga ham xizmat qilib, dostonning og‘zaki ijroga mo‘ljallanganligini eslatib turadi. Voqealarni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni ahamiyati beqiyosdir. [Qurbonova, Yo‘ldoshev 2014; 64].

Iboralarning yana bir vazifasi – nutqning jonliligini saqlashdir. Og‘zaki ijrochilik an’anasi uchun iboralar o‘ziga xos “ruh bag‘ishlovchi” birliklar bo‘lib, dostonning voqealar zanjirini eshituvchining tasavvurida aniq jonlantirishga imkon beradi. Ularning qo‘llanishi monotoniya va bir xillikdan saqlaydi, matnning ohangini, ritmini va energetikasini belgilaydi. Shuningdek, iboralar orqali qahramonning dunyoqarashi, o‘zini tutish tarzi va his-tuyg‘ulari xalqona nutq asosida ochiladi. Bu esa obrazlarning hayotiyliigi va milliy xarakteriga mos ravishda tasvirlanishiga xizmat qiladi.

“Ravshan” dostonida epitetlar ko‘pincha jang, safar yoki sinov sahnalarida uchrab, voqealarning ulug‘vorligini ta’kidlaydi. Ular dostonning emotsional fonini belgilab, qahramonning holatini tinglovchiga yaqinlashtiradi. Dostonda Zulxumor tilidan quyidagi misra keltiriladi:

Ko‘zimning yorug‘i, tanim rohati,
Jonimning huzuri, belim quvvati,
Vallamatim, saltanatli polvonim,

Zulxumorning sening bilan davlati! [Ravshan dostoni 2011; 260]

Ushbu misrada epitetlar ketma-ket qo‘llanib, qahramonning yuksak bahosi, muhabbat va hurmati badiiy tarzda ifodalangan. Doimiy epitetlarning marom bilan takrorlanishi esa dostonning og‘zaki ijro uslubidagi ritm va nafasni shakllantiradi. Bu birliklar yordamida shaxsiy obraz umumxalq estetik mezoniga moslashtiriladi, Ravshan esa xalq idealidagi qahramon timsoliga aylanadi.

“Ravshan” dostonidagi maqollar, iboralar va doimiy epitetlar asarning badiiy tuzilishida bir-birini to‘ldiruvchi, yaxlit poetik tizimni tashkil qiluvchi unsurlardir. Ular dostonni milliy ruh bilan sug‘oradi, obrazlar xarakterini chuqurroq ochadi, epik voqealarning mazmun va ohangini mustahkamlaydi .

XULOSA

“Ravshan” dostonini lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, xalqona til unsurlari – maqollar, iboralar va doimiy epitetlar – asarning badiiy tizimini tashkil etuvchi eng asosiy qatlamlardan biridir. Ushbu birliklarning faol qo‘llanishi dostonning epik mazmunini ochishda, obrazlar xarakterini shakllantirishda, voqealarning emotsional va semantik yukini belgilashda o‘ta muhim vazifani bajaradi. Xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan kelib chiqqan bu poetik vositalar dostonning ritmik oqimini ta‘minlab, uning og‘zaki ijroga mo‘ljallangan tabiati bilan uyg‘unlashadi.

Doston matnida uchraydigan maqollar xalq donishmandligining ixcham badiiy shakli sifatida harakat motivlarini asoslaydi, qahramonlar nutqini tabiiylashtiradi va syujet rivojiga axloqiy mezon kiritadi. Ular Ravshanning qahramonlik sifatlarini xalq idealiga mos holda baholashga yordam beradi va shu yo‘l bilan asarning ma‘naviy mazmunini mustahkamlaydi. Iboralar esa dostonning emotsional-ekspressiv qatlamini boyitib, tasvir jarayonini jonlantiradi. Ular jang sahnalarining dinamikasini kuchaytiradi, qahramonlarning ruhiy holatini nozik detalda yoritadi hamda matnga og‘zaki nutqqa xos tabiiylik bag‘ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmamatova SH.H. Fil.f.d.diss...avtoreferati. 2021. – 24 b.
2. Axmedov, A. O‘zbek xalq dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
3. Darvishov, I., Etnolingvistika . – Namangan: Istedod ziyo pres, 2025.125-bet
4. Mirzayev T.,Musaqulov A., Sarimsoqov B., O‘zbek xalq maqollari.- – Toshkent.2013.5-bet
5. Ravshan dostoni – Toshkent: SHarq, 2011.169-bet, 260-bet.
6. Qurbonova, M., Yo‘ldoshev M., Matn tilshunosligi – Toshkent: Unversitet, 2014. 64-bet
7. Boltayeva, M. Frazelogik birliklarning badiiy matndagi funksiyasi. – Toshkent: Akademyashr, 2016.
8. Qurbonov, A. Epitet va ta’riflarning poetik vazifalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.